# MATN MUKAMMALLIGIDA MUHARRIR MAHORATI

**Boyboboyev Hayotjon Abdujabborovich,**
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Saminov Abdumalik Inomjonovich**
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

***Annotatsiya***
*Ma’lumki, matnni chop etilishdan oldin tahrir qilish har jihatdan foydalidir. Ushbu maqolada matn tahririning mazmun-mohiyati, muharrir faoliyati va uning matn mukammalligidagi o‘rni, bu jarayonlardagi muhim jihatlar yoritilgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *tahrir, tahririyat, muharrir, matn tahriri jarayoni, yondashuv, qo‘lyozma.*

## KIRISH

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “tahrir” quyidagicha izohlanadi:

“**Tahrir** – ozod qilish; tuzatish, muharrirlik qilish; yozish, asar yozish.

1. Yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish.
2. Yozish, ijod qilish”.

Shuningdek, tahririyat va tahrirchi so‘zlariga ham aniqlik kiritilgan: “**Tahririyat** – nashriyot organlarining nashr ishlarini olib borish, qo‘lyozma matnlarini ishlab, nashrga tayyorlab berish va nashr jarayonida terilgan matnlarning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini tekshirish ishlarini amalga oshiradigan bo‘limi va shunday bo‘lim xodimlari; Tahrirchi – tahrir qiluvchi, tahrir ishlarini bajaruvchi; muharrir, musahhih”.

Ko‘rinadiki, tahrirchi – muharrir tahrir bilan shug‘ullanuvchi xodim, shaxs hisoblanib, tahrir jarayoni bevosita matn bilan bog‘liq bo‘ladi. Matn bo‘lmasa, tahrir ham bo‘lmaydi.

Muharrirlik bir necha turda bo‘lishi mumkin: ilmiy muharrir, badiiy muharrir, texnik muharrir, mas’ul muharrir kabi. Umuman olganda, muharrir asosan nashr jarayonigacha bo‘lgan davrda matnlarni tuzatish, undagi tushunarsiz o‘rinlarni asoslash va aniqlik kiritish, izohtalab so‘z va jumlalarni havola (snoska)lar orqali izohlab ketish, fikrlar tugalligi, uslubiy va grammatik jihatdan mukammalligini ta’minlashga mas’ul shaxs, vazifa, lavozimdir. Shu bilan birga, muharrir matnlardagi g‘alizliklar va xatolarni bartaraf etish bilangina cheklanmay, har bir matnga nisbatan individual yondashishi, muallif istagan, o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan yoki nazarda tutgan g‘oya, mavzu va ruhiyatdan uzoqlashmagan holda tahrir qilishini yoddan chiqarmaslik zarur. Bu talablar bajarilmas ekan, matn mukammalligiga erishib bo‘lmaydi.

Istalgan asar (matn, qo‘lyozma)ni nashrga tayyorlashda uni tahrirdan o‘tkazuvchi mas’ul shaxs – muharrir faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa nashrning har jihatdan sifatli amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Muharrir:

1) qo‘lyozmaning nashrga yaroqliligini aniqlaydi, muallif bilan munozaraga kirishish orqali asarning barcha jihatlarini tanqidiy ko‘rib chiqadi, zarur hollarda muallifga mavjud nuqsonlarni bartaraf qilishda yordam beradi;

2) nashr jarayonida qatnashuvchi barcha xodimlar faoliyatini uyg‘unlashtiradi, nazorat qiladi va ko‘maklashadi; o‘z tavsiya va fikr-mulohazalarini taqdim qiladi;

3) muayyan yo‘nalishdagi asar uchun kerakli axborot-ma’lumotlarni yig‘adi, tahlil qiladi, aniqlaydi va nashr mukammalligi uchun xizmat qiluvchi jihatlarni tatbiq qiladi.

Bunda qo‘lyozmaga tanqidiy yondashish eng muhim jihatlardan sanaladi. YA’ni tahrir – muallif yo‘l qo‘ygan kamchilik va xatolarni xolisona to‘g‘rilash, asardagi faktlarni yuqori darajada aniqlashtirish, matndagi mantiqiy izchillikni, leksik-stilistik talablarning bajarilishini nazorat qilish, qo‘lyozmadagi har qanday noaniqliklar, g‘alizliklar, tushunarsiz o‘rinlarni bartaraf qilish orqali matn mukammalligini ta’minlashdan iborat.

Binobarin, matn tahriri faqatgina tuzatish, qisqartirish, “olib tashlash”dangina iborat emas, balki bu faoliyat zarur o‘rinlarni to‘ldirish, izohlash, fakt va raqamlarga aniqlik kiritish, ularning manbalarini izlab topish, shuningdek, janr xususiyatidan kelib chiqib, o‘quvchi – adresat nuqtai nazari, uning dunyoqarashi, ilmiy salohiyati va yoshiga mos fikrlash demakdir. Shu jihatdan muharrir nafaqat til va adabiyot qonun-qoidalari, tushuncha va birliklarini, balki tahrir qilinayotgan matnga aloqador bo‘lgan boshqa bilimlarni ham bilishi zarur. Aks holda, tahrir jarayonida matndagi nuqsonlar bartaraf etilmay qoladi, o‘quvchi uchun bu asarning tushunarlilik va qiziqarlilik xususiyatlari yo‘qoladi.

Umuman, tahrir jarayoni matndagi so‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq nuqsonlarni – leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy xatolarni tuzatish, matn qurilishidagi uslubiy jihatlarga e’tibor qaratib, to‘g‘rilash, shu asosda matnni qayta ishlash, faktik materiallarni – manbalar, sanalar, atamalar, raqamlar, iqtiboslarni tekshirish, matn kompozitsiyasini mukammallashtirish, imloviy xatolarni tuzatish kabi qator vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Nashr etish uchun taqdim qilingan har qanday matn (badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar) qo‘lyozma holigacha muallifning (yoki mualliflarning) dunyoqarashi, ilmiy va badiiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lsa, keyingi bosqichda endi musahhih, texnik va badiiy muharrir, dizayner-sahifalovchi, bosh muharrir kabi mas’ullar bu matnga e’tibor qaratadilar. Ularni birlashtirib turuvchi nuqta – asarning pishiq-puxta, xatosiz va asosiysi, ko‘zlangan maqsadga muvofiq mukammal chop etilishiga bevosita aloqadorlikdir.

Muharrir qo‘lyozma matn bilan tanishib chiqish jarayonida o‘ziga xos maqsad yo‘nalishini tanlab olishi va shu yo‘nalishda harakat qilishi zarur. Bu maqsad turlicha bo‘ladi. Deylik, bolalar adabiyotiga aloqador janrda yozilgan asar tahririda asosiy e’tibor matnning kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun tushunarli, ayni paytda qiziqarli bo‘lishi, ularni ezgu yo‘lga boshlay olishi, tarbiyalashi, ijobiy xususiyatlarni shakllantirishga ko‘maklashishi singari jihatlarga qaratiladi. Ilmiy yoki ilmiy-ommabop janrdagi matnlarda esa fakt va raqamlarning aniqligi, fikrlarning asosli ekanligi, tadqiqot obyekti haqida yozilgan boshqa manbalardan ham xabardorlik, asarning jamiyat va ilm

ahli uchun qimmatli bo‘lishi, yangi g‘oyalar sari undashi, hatto ba’zan ilmiy bahslarga chorlashi kabi jihatlar bosh maqsad qilib olinadi va hokazo.

Xususan, ommaviy axborot vositalari, jumladan, gazeta va jurnallar, elektron saytlardagi har bir maqola, ma’lumot, axborotlarning ma’no va mazmun tugalligi, stilistik va imloviy jihatdan mukammalligi har jihatdan muharrir faoliyatiga bog‘liq. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, elektron platformalardagi xato, kamchilik va nuqsonlarni tuzatish, to‘g‘rilash imkoniyati bosma nashrlarga qaraganda o‘ziga xos qulaylik, afzalliklarga ega. Ommaga e’lon qilingan axborotdagi xato va nuqsonlarni kompyuter texnologiyalari yordamida o‘z vaqtida tuzatish mumkin.

Bir necha misollarga to‘xtalamiz:

“Qalampir.uz” saytida berilgan “Yurak qon-tomir kasalliklari bilan qanday kurashish mumkin?” sarlavhali maqola-intervyuning bir necha o‘rinlari tahrirtalab.

1) “Og‘riq ko‘pincha to‘sh sohasida paydo bo‘lib, kurak sohasi va chap qo‘lga uzatiladi”. Bu gapdagi “uzatiladi” so‘zi o‘rnida “o‘tadi” so‘zini qo‘llash yoki keyingi jumlani “kurak sohasi va chap qo‘lda ham sezila boshlaydi” tarzida havola qilish mumkin edi.

2) Maqolada keltirilgan “Yurak faoliyatini va yurak mushaklar va klapanlari holatini o‘rganuvchi EXO kardiografiya, yurak urishini bir sutka davomida nazorat qiluvchi Xolter monitorlash usuli, yurakning jismoniy yuklamaga chidamliligini o‘rganuvchi Tredmil test, MRT va MSKT, avtomatik bioximik tahlillar kabi diagnostika usullari, yurak toj tomirlari holatini endovaskulyar o‘rganuvchi koronarografiya va stentlash, yurakning murakkab aritmiyalarini jarrohlik usuli bilan davolashga qaratilgan EFI diagnostika va radiochastotali ablyatsiya usullari, yurak nuqsonlarini jarrohlik usuli bilan davolashga qaratilgan kardiojarrohlik, Aorta koronar shuntlash usullari shular jumlasidandir” gapida faqat mutaxassislar tushuna oladigan atamalar keltirilgan. Vaholanki mazkur veb-sayt keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan OAV sifatida ro‘yxatga olingan. Bizningcha, EXO kardiografiya, Xolter, Tredmil test, MRT, MSKT, endovaskulyar, EFI, aritmiya, Aorta koronar shuntlash atamalariga shu joyning o‘zida yoki maqola oxirida izoh va tushuntirishlar berib ketish kerak.

Umuman, matn tahririning mohiyati matnni sifat jihatidan yaxshilash, o‘quvchiga ravon va oson tushuniladigan matnni taqdim etishdir. Agar matn sifatli tahrirdan o‘tkazilsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Matn qanday usulda yozilgan bo‘lishidan qat’i nazar, takomiliga yetkazilishi, mukammal matn darajasiga olib chiqilishi zarur. Bunda eng asosiy vosita esa adabiy tahrir hisoblanib, matn mukammalligida muharrirning mahorati katta rol o‘ynaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016.

2. Милчин А.Э. Редакторский анализ литературного произведения как составная част теории редактирования. 1977, С-Пб.

3. Милчин А.Э. Методика и техника редактирования текста. Практическое пособие. Издательство "Книга". Москва, 1972. 320 стр.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.

4. Сикорский Н.М. Теория и практика редактирования: Учебник для вузов по спец. «Журналистика». - 2-е изд. - М.: Высшая школа, 1980.
5. Tohirov Z. Tahrir mantiqi. –T., O‘zbekiston, 2016.